

YAPONIYA IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI: IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG (1950-1990)

Nematova Bahora

2324bahor@gmail.com

Omonboyeva Zarina

zarinaomonboyeva05@gmail.com

Tog'ayeva Malika

qwertyjioplkhgfsa734@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti, 1-kurs
talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15253807>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 21st April 2025

KEYWORDS

Yaponiya iqtisodiyoti, Ikkinchi jahon urushi, iqtisodiy islohotlar, eksport strategiyasi, texnologik taraqqiyot, demografik muammolar, swot tahlili

ABSTRACT

Ushbu maqolada Yaponiya iqtisodiyotining Ikkinchi Jahon urushidan keyingi tiklanish jarayoni va uning asosiy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot 1950–1990-yillar oralig'ida Yaponiya iqtisodiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilib, davlat tomonidan sanoatni qo'llab-quvvatlash, eksportga yo'naltirilgan strategiya, texnologik taraqqiyot va sifatli ta'lim tizimi kabi omillarning ahamiyatini yoritadi. SWOT tahlili asosida Yaponiya iqtisodiy modelining samaradorligi baholanib, uning jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli rejalashtirish va samarali boshqaruv tizimi yapon korporatsiyalarining global bozorda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bergan. Shuningdek, davlatning innovatsion texnologiyalarni rag'batlantirishi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirgan. Biroq, bugungi kunda mamlakat demografik muammolar, ayniqsa, aholining qarishi va ishchi kuchining qisqarishi kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Umuman olganda, Yaponiya iqtisodiy modeli nafaqat uning o'z taraqqiyotini belgilovchi tajriba, balki boshqa davlatlar uchun ham o'rganishga arziydigan namuna sifatida baholanadi. U iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish uchun strategik yondashuv va innovatsiyalarning muhimligini namoyon etadi.

KIRISH. Hayot davom etar ekan, insonlar bir-biri bilan bahslashib, o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qiladi. Davlatlar ham azaldan o'zaro sovuq urushlar qilib insoniyatga juda katta talofatlar yetkazgan, yetkazmoqda va yana yetkazadi. Bunday urushlar hech qachon to'xtamaydi. Butun yer yuzini qoplab olib barcha davlatlar orasiga yovuzlik urug'ini sochgan Jahon urushlari eng avvalo insoniyatga, keyinchalik esa madaniyat, ma'rifat, turizm, teatr, savdo-sotiq, sanoat, musiqa kabi sohalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu urushlar hayotimizni yaxshilashga, borliqni anglashga, o'z mustaqil hayotimizni qurishimizga xalaqit berarkan, insoniyat rivojlanmay, davlatlar iqtisodiy inqirozga uchrab dunyo kundan kunga ifloslanib boraveradi. Shunday urushlardan biri 1939-yilning 1-sentabiridan boshlab 1945-yilning 2-sentabriga qadar davom etgan va tarixda "Ikkinchi jahon urushi" nomi bilan atalgan. Aynan shu urush tufayli jahonda mashhur Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlarning iqtisodiy nufuzi inqirozga yuz tutdi. Keyinchalik esa ular o'z iqtisodiy va siyosiy obro'larini tiklash uchun juda ko'p islohotlar o'tqazishdi. Natijada, barcha davlatlar o'zini anglab oldi, ammo Yaponiya hammaning diqqat markazida bo'ldi. Bunga sabab esa u to'rt bosqichda "Yapon modeli" orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotini anchagina tiklab oldi va o'zining transport xizmatlari, eksport va YIM dagi yuksak o'zgarishlarni amalga oshirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ryutaro Komiya o'zining "Postwar Economic Growth in Japan" nomli ilmiy kitobida Yaponiya iqtisodiyotining Ikkinchi jahon urushidan keyingi rivojlanishi haqida so'zlagan. O'sha mashhur Yapon iqtisodiy mo'jizasi qanday bo'lganini har tomonlama o'rgangan. Davlatning siyosiy qarorlarini tahlil qilgan. Hukumat sanoatni rivojlantirish va eksportni oshirish uchun qabul qilgan qarorlari haqida ham o'z kitobida to'xtalib o'tgan. Tadbirkorlikda esa Yapon kompaniyalari jahon bozoriga chiqish uchun qanday innovatsiyalar joriy etganligini sinchiklab o'rgangan. Bundan tashqari urushdan oldingi va keying tadbirkorlarni solishtirib, ularning boshqaruv usullari iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatganini kitobda yoritib berilgan.

Yana bir yapon olimi Kazuo Sato Yaponiyaning 1950-yillardan 1970-yillargacha bo'lgan iqtisodiy o'sish davrini o'zining "The Transformation of the Japanese Economy" kitobida tahlil qilgan. Bu kitob Yaponiyaning davlat, biznes va byurokratiya o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlikka asoslangan iqtisodiy tizimini tahlil qiladi. Mamlakat sanoat va eksportlarni yaxshilash uchun qo'llagan strategiyalari haqida ham ushbu kitobdan o'rgansak bo'ladi. Bu asar urushdan keyingi Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishini tushunishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Nafaqat yapon, balki ingliz olimlari ham bu mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borganlar.

Chalmers Johnson "MITI and the Japanese Miracle: The Growth of Industrial Policy, 1925-1975" nomli asarida Yaponiyaning Xalqaro savdo va sanoat vazirligi (MITI)ning iqtisodiy o'sishdagi markaziy rolini tushuntirib bergan. Ushbu asar MITIning mamlakat sanoatlashuvida tutgan o'rni va isloh qilgan strategiyalarini yaqqol ko'rsatib bergan. Bundan tashqari bu tashkilot davlat va xususiy sektorlarni qanday birlashtirgani tushunishga yordam beradi va albatta har bir qilingan ish iqtisodiy o'sishga qanday hissa qo'shigani haqida ham ma'lumot bera oladi.

Ezra F.Vogelning "Japan as Number One: Lessons for America" kitobi 1979 yilda chop etilgan bo'lib, bu kitobda Yaponiya iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarining AQSH uchun o'rnak bo'la oladiga jihatlari tahlil qilingan. Bu asarda mamlakat jamiyatning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan asosiy qarorlar, xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi hamkorliklar modeli, davlat ta'lim tizimining jamiyatdagi roli va eng asosiysi ijtimoiy barqarorlik va jinoyatchilik darajasining ushbu mamlakatda pastligi muhokama qilinadi. Bu


kitob o'z davrida Yaponiyada eng ko'p sotilgan G'arb yozuvchisining no-badiiy asarlaridan biriga aylangan. Bundan tahsqari kitobning asl g'oyasi AQSH Yaponiyadan saboq olishi bo'lgan.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda 1950 va 1990-yillar oralig'ida Yaponiya iqtisodiyoti qanchalik o'zgarganini tahlil qilish uchun tarixiy hujjatlar, iqtisodiy statistikalar va shu mavzu bo'yicha yozilgan maqolalar bilan tanishib chiqildi. Shu tufayli Yaponiya iqtisodiyotining YIMI, sanoatdagi ishlab chiqarishi, eksport va import hajmi va ishsizlik darajasi kabi sohalari chuqur o'rganildi. Bu ko'rsatkichlarni esa xalqaro, iqtisodiy va statistik taqqoslash usullari bilan tubdan yoritib berildi va bunda SWOT usulidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Sanoati. Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatning sanoati qayta tiklanish bosqichida bo'lgan. Iqtisodiyotining har bir sohasiga alohida e'tibor bergan va bosqichma bosqich o'z maqsadiga erishgan. Bu iqtisodiy sohalarni hozir birma bir tahlil qilib chiqamiz.

Transport xizmatlari. 1924 yilda mamlakatda mashinalar parki 17,9 mingtaga etdi. Shu bilan birga, bug'doy, otliqlar yoki otlar qo'zg'atadigan juda ko'p sonli velosiped va vagonlar bor edi. Yigirma yil o'tgach, yuk mashinalari talabi, asosan, armiyaga bo'lgan ehtiyojlar ortib borayotgani tufayli o'sdi. 1941 yilda davlatda 46706 transport ishlab chiqarildi, shulardan 1065 tasi avtomobillar edi. Yaponiyada avtomobil sanoati faqat Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Koreyadagi urush oqibatida rivojlana boshladi. Amerikaliklar tomonidan harbiy buyurtma olgan kompaniyalarga yaxshi sharoitlar yaratilgan. 1950-yillarning ikkinchi yarmida avtomobillarga bo'lgan talab ham tez o'sdi. 1980-yilga kelib, Yaponiya AQShni yengib, dunyoning asosiy eksportchisi bo'ldi. 2008-yilda ushbu mamlakat dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya deb e'tirof etildi.¹

Mamlakatning avtomobil sanoati AQShni ham ortda qoldirgani, Yaponiyaning iqtisodiy o'sish rejalari muvaffaqiyatli amalga oshganining isbotidir.



¹ <https://uz.atomiyme.com/yaaponiyada-sanoat-sanoat-va-ularning-rivojlanishi>

1-rasm. Ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (1950-1990)

Yaponiya 2008-yilda dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lgan, ammo 2009-yilda Xitoyning avtosanoati — hozirgi yetakchisiga mavqeini boy bergan.² Bular Yaponiyaning eng yirik avtomobil markazlari:


**2-rasm.** Yaponiyadagi mashhur avtomobil markazlari³

Ekспорт. Urushdan so'ng hukumat xalqni iqtisodiy yordam ko'rsatgich, mahsulotlarining sifati yaxshilandi. Shu tufayli Yaponiyaning iqtisodiy sherik davlatlari qatori kundan kunga kengayib bordi. Masalan, AQSH, Yevropa davlatlari va Osiyo o'lkalari. Davlat savdogarlari erkin raqobat olib borishi tufayli mamlakat iqtisodiyotini sezilarli darajada yaxshilab oldi. Shu qatorda yana bir e'tibor qaratilgan asosiy ish bu ta'lim, ya'ni davlat o'z xalqini iqtisodiy bilimni oshirgan. Natijasini mana bu diagrammada ko'rishimiz mumkin:

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaponiya_avtomobil_sanoati

³

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fayl:%D0%A6%D0%B5%D0%BD%D1%82%D1%80%D1%8B_%D0%B0%D0%B2%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%B1%D0%B8%D0%BB%D0%B5%D1%81%D1%82%D1%80%D0%BE%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F_%D0%AF%D0%BF%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%B8.jpg



3-rasm. Yaponiya iqtisodiyotidagi import va eksport miqdori (1950-1990)⁴

Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat eksport va importida anchagina o'sish kuzatilgan.

SWOT TAHLILI. 1950-yildan 1990-yilgacha Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishi jahon miqyosida e'tiborga molik yutuqlar bilan ajralib turdi. Ushbu davrda mamlakat texnologik taraqqiyot, sanoat ishlab chiqarishi va eksport hajmi bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Quyida Yaponiyaning ushbu yillarda o'sishi va rivojlanishi SWOT tahlil asosida baholanadi.

1950-yildan 1990-yilgacha Yaponiya eksport hajmini sezilarli darajada oshirdi. 1950-yilda eksport hajmi 298 milliard yenni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilda bu ko'rsatkich 37,8 trillion yenga yetdi. Ushbu o'sish mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minladi.

Yaponiyaning texnologik innovatsiyalari va sanoat rivojlanishi ham uning iqtisodiy muvaffaqiyatiga turtki bo'ldi. Xususan, avtomobilsozlik va elektronika sanoatining rivojlanishi xalqaro bozorda Toyota, Honda, Sony kabi yirik kompaniyalarning yetakchi o'rinni egallashiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, Yaponiya savdo balansida ijobiy natijalarga erishdi. 1960-yildan boshlab eksport hajmi importdan yuqori bo'lib, bu iqtisodiy barqarorlikni mustahkamladi. Bundan tashqari, infratuzilmaning rivojlanishi – Shinkansen tezyurar poyezdlari, portlar va avtomobil yo'llarining kengayishi – savdo va transport tizimining samaradorligini oshirdi.

Yaponiya iqtisodiy o'sishining asosiy zaif tomonlaridan biri tabiiy resurslarning yetishmovchiligi edi. Neft va boshqa xomashyo importiga yuqori darajada qaramlik mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga xavf tug'dirgan. Bundan tashqari, aholi demografik o'zgarishlari iqtisodiy muammolarga sabab bo'la boshladi. 1990-yillarga kelib tug'ilish darajasining pasayishi va aholi qarish jarayonining tezlashishi ishchi kuchining qisqarishiga

⁴ https://www.customs.go.jp/toukei/suii/html/nenbet_e.htm

olib keldi. Shuningdek, Yaponiya eksportining katta qismi AQSH va Yevropa mamlakatlariga yo'naltirilgani sababli, iqtisodiy rivojlanish ushbu davlatlarning talabiga bog'liq bo'lib qoldi.


Yaponiya uchun yangi eksport bozorlari o'z imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi. Afrikadagi va Lotin Amerikasidagi yangi bozorlarni o'zlashtirish orqali eksport hajmini oshirish mumkin edi. Bundan tashqari, 1980-yillarda IT va robototexnika sohasidagi innovatsiyalar Yaponiya iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish orqali Yaponiya raqobatbardoshligini yanada oshirish imkoniga ega edi. Ekologik muammolarning ortib borishi sababli, ekologik toza ishlab chiqarish va yashil texnologiyalarni rivojlantirish Yaponiya uchun yangi bozorlarni ochishi mumkin edi. 1970-yillarda yuz bergan neft inqirozi Yaponiya iqtisodiyotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Energetik resurslarning narxi oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini ham keskin oshirib yubordi. Shuningdek, 1980-yillarda AQSH bilan savdo nizolari tufayli Yaponiya eksportiga cheklovlar joriy etildi. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yaponiyaning tabiiy ofatlarga moyilligi ham iqtisodiy xavf omillaridan biri bo'lib qoldi. Zilzila, tsunami va vulqon otilishi kabi tabiiy ofatlar sanoat ishlab chiqarishiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin edi.

Bundan tashqari, ish haqi va xomashyo narxlarining oshishi Yaponiya mahsulotlarining narxini qimmatlashtirib, eksport raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin edi.

Xulosa qilib aytsak, 1950-yildan 1990-yilgacha Yaponiya jahon iqtisodiyotida yetakchi davlatga aylandi. Eksport hajmining ortishi, texnologik taraqqiyot va infratuzilmaviy rivojlanish mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minladi. Shu bilan birga, tabiiy resurslarning yetishmovchiligi, demografik muammolar va xalqaro savdo kelishmovchiliklari Yaponiya oldidagi asosiy tahdidlar bo'lib qoldi. Kelajakda Yaponiya iqtisodiy xavflarni kamaytirish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun yangi texnologiyalar va diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishga intildi.

Yalpi ichki mahsulot. Davlatning iqtisodiyoti yaxshilanib boraverarkan, bu yalpi ichki mahsulotning ham yaxshilanishiga olib keladi. Mahorat bilan tuzilgan iqtisodiy o'sish natijasida mamlakat juda katta foyda ko'rdi. Ya'ni 1955-yildan 1992-yilgacha bo'lgan davr iqtisodiy o'sish va ijtimoiy boylikning rivojlanishida turli o'ziga xos bosqichlarni aks ettirdi. Ushbu davrning iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etgan bo'lib, ayniqsa, 1980-yillarda iqtisodiy yuksalish sezilarli darajada yaqqol kuzatiladi. YAIM asta-sekin ortib borgan. Dastlabki yillar, ya'ni 1960-yillarda o'sish nisbatan barqaror va mutanosib edi. Biroq, 1970-yillardan boshlab YAIMning o'sishi tezlashgan bo'lsa, 1980-yillarning o'rtalarida ushbu ko'rsatkich keskin oshgan. 1990-yillar boshida o'sish davom etgan, ammo o'ziga xos barqarorlikni namoyon qilgan. Umumiy ijtimoiy boylik ham xuddi shunday o'sish dinamikasini kuzatgan. 1970-yillarning oxiridan tezlashgan o'sish jarayoni 1980-yillarda yuqori cho'qqiga chiqqan. Ayniqsa, 1987-1988-yillarda ushbu ko'rsatkichning keskin o'sish hodisalari kuzatilgan. 1990-yillarning boshlarida esa ijtimoiy boylikning o'sish sur'atlari nisbatan pasaygan, biroq umumiy hajmi barqaror yuqori darajada saqlangan. Ushbu iqtisodiy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Ayniqsa, 1980-yillar iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlar davri sifatida ahamiyatli bo'lib, 1990-yillar esa barqarorlik va sekinlashuv davri sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlari va shart-sharoitlarini aks ettiradi.



4-rasm. Yaponiya YaIM ko'rsatgichi (1955-1993)⁵

Xulosa. Yaponiya iqtisodiy muvaffaqiyatining asosiy omillari urushdan keyingi davrda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, sanoatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportga yo'naltirilgan strategiya va texnologik taraqqiyotdan iborat. Bu omillar mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga zamin yaratgan. Sifatli ta'lim tizimi va malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalari Yaponiya iqtisodiy muvaffaqiyatining boshqa muhim jihatlarini ham aniqlab berdi. Korporativ boshqaruvning yuqori darajasi va uzoq muddatli rejalashtirish choralari yirik kompaniyalarni global bozorda raqobatbardosh qilishga yordam bergan. Bunda davlat tomonidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash siyosati hal qiluvchi rol o'ynadi.

Biroq Yaponiya iqtisodiyoti hozirgi kunda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ulardan eng asosiylari demografik muammolar, xususan, aholining qarishi va ishchi kuchining qisqarishi bilan bog'liq. Bu holatlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Umuman olganda, Yaponiya iqtisodiy modeli uning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillarni namoyish etibgina qolmay, balki boshqa mamlakatlar uchun ham o'rganishga arziydigan tajriba sifatida qayd etiladi. Bu model iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish yo'lida qaysi yo'nalishlarga e'tibor qaratish kerakligini anglashda muhim saboqlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Kitoblar:

1. Chalmers.J. MITI and the Japanese Miracle-US/Canada.: Stanford university press, 1982-412 bet <https://www.sup.org/books/politics/miti-and-japanese-miracle>

⁵ https://www.researchgate.net/figure/GDP-and-total-national-wealth-of-Japan-during-1955-1993-Shiono-1995_fig4_226259650

2. Kazuo Sata. The transformation of the Japanese Economy-
British.: Routledge, 1996-352-bet https://www.routledge.com/The-Transformation-of-the-Japanese-Economy/Sato/p/book/9781563247767?srsId=AfmBOorE2t3iDZ_Ii8FSjd7MqvdRUWutSTQ_hX-o1KDFQjBdE4AjQ2v4P
3. Ryutaro Komiya. Postwar economic growth in Japan-
Berkeley and Los Angeles.: University of California press, 1966-251-bet
https://books.google.co.zm/books?cad=0&id=L1ftjS_1RCQC&printsec=frontcover&source=gb_s_ge_summary_r&utm_source=chatgpt.com#v=onepage&q&f=false
4. Vogul, Ezra F. Japan as a number one: lessons for America-
Cambridge, mass.: Harvard University press, 1979-272-bet
https://archive.org/details/japanasnumberone0000voge_r0n6/mode/2up?view=theater&ui=embed&wrapper=false

Jurmallar:

1. The Japanese Economy: The Dawn of Asia's second largest
Economy <https://my-take-on-econ.medium.com/the-japanese-economy-the-dawn-of-asias-2nd-largest-economy-330b190206bd>
2. Yaponiya iqtisoditoti rivojlanish boshqichlarining
xususiyatlari
<https://www.sharqjurnali.uz/files/123/%D0%98%D2%9B%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4%20%D0%B2%D0%B0%20%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D1%82%D0%B0%D2%9B%D0%B0%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA/109/Yaponiya%20iqtisodiyoti%20rivojlanish%20bosqichlarining%20xususiyatlari.pdf>

INNOVATIVE
ACADEMY